

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.Mamadaliyeva</b>	
Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati .....	208
<b>F.M.Mamadova</b>	
Pedagogik madaniyat va kompetensiyani takomillashtirishning uslubiy jihatlari .....	211
<b>Z.A.Boboyeva</b>	
Uzluksiz ma'naviy tarbiya ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishning muhim omili.....	214
<b>G.H.Axmedova</b>	
Jorj Eliotning "Daniel deronda" romanining o'ziga xos jihatlari tahlili.....	219
<b>F.A.Temirova</b>	
Hsg misolida idiomatik lug'atni tuzish yondashuvlarining uslubiy tahlili: taqqoslash, xususiyatlari va tavsiyalari .....	222
<b>G.Sh.Zununova</b>	
Zamonaviy o'zbek turar joyining dastlabki manbalari haqidagi masalalar bo'yicha .....	226
<b>F.K.Yusupjanova</b>	
Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar .....	231
<b>U.Abdullayeva</b>	
Bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash .....	235
<b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi .....	241
<b>D.A.Xolmatov</b>	
Odil Yoqubov hikoyalarining janr xususiyatlari .....	247
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari .....	252
<b>I.I.Soliyev</b>	
OTMLar boshqaruvini isloh qilish va unga yangicha yondashuvlarni tatbiq qilish zarurati.....	257
<b>D.T.Tursunova</b>	
Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning gender xususiyatlari .....	264
<b>D.D.Boymirzayeva</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini isloh qilish va unga yangicha printsiplarini joriy qilish zarurati .....	270
<b>M.Norinov</b>	
Bo'lajak texnik mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini multimediya vositalari asosida rivojlantirish omillari .....	275
<b>F.A.Askarov</b>	
Jismoniy yuklama to'g'risida umumiy tushuncha va jismoniy mashqlar yuklamasining pedagogik xususiyatlari .....	279
<b>S.Y.Xushvaqto'v, M.M.Jurayev, N.M.Qutlimuratov</b>	
Mahalliy xomashyolar asosida olingan yangi ionitga yod ionlarining sorbsiya kinetikasi.....	282
<b>U.A.Buriyeva</b>	
Ingliz tilshunosligida to'liqsiz gaplarning shakllanishi .....	287
<b>N.N.Teshayev</b>	
Taraqqiyotning yangi bosqichida fuqarolik jamiyati ma'naviy-mafkuraviy omillarini mustahkamlash amaliyoti .....	291
<b>M.Saminjonov</b>	
Turli sohalardagi qasamyodlarning rasmiy tuzilishi.....	295

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA JAMOATCHILIK NAZORATI

## ОБЩЕСТВЕННЫЙ КОНТРОЛЬ В ОБЛАСТИ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ

## PUBLIC CONTROL IN THE FIELD OF FIGHT AGAINST CORRUPTION

<sup>1</sup>Mamadaliyeva Muazzam<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti yurisprudensiya yo'nalishi talabasi**Annatsiya**

*Maqolada korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilishiga sharoit yaratuvchi omillardan biri sifatida korrupsiya ustidan ijtimoiy nazorat yetarli emasligi yoritilgan. Bayon qilingan ta'riflarning tahlili jamoatchilik nazoratining obyektini tushinishda yondashuvlar turlicha ekanligini ko'rsatadi.*

**Аннотация**

*В статье выделяется недостаточный общественный контроль над взяточничеством как один из факторов, создающих условия для совершения коррупционных преступлений. Анализ изложенных определений показывает, что существуют разные подходы к пониманию объекта общественного контроля.*

**Abstract**

*The article highlights insufficient social control over this corruption as one of the factors that create conditions for the commission of corruption crimes. The analysis of the stated definitions shows that there are different approaches to understanding the object of public control.*

**Kalit so'zlar:** "jamoatchilik", "Yuridik ta'rif", "Amaliyotchilik", "Ko'ppartiyaviylik".

**Ключевые слова:** «сообщество», «Юридическое определение», «Практика», «Многосторонний подход».

**Key words:** "community", "Legal definition", "Practiceship", "Multi-stakeholderism".

**KIRISH**

Zamonaviy taraqqiyotning hozirgi bosqichida dunyoning aksariyat mamlakatlarida davlat bilan fuqarolik jamiyatining korrupsiyaning oldini olishda o'zaro hamkorligi kuchayib borayotganligi tendensiyasi kuzatilmoqda. Shunga ko'ra, davlat va jamiyat oldidagi muhim masalalarni hal etish, jumladan korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratini tashkil etish orqali samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish kunning eng muhim va dolzarb masalasi hisoblanadi.

Korrupsiya ko'p o'lchamli, tashqi va ichki sharoitga qarab tez o'zgaruvchandir. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha innovatsion yondashuvlarning rivojlanishini o'rganib borish ushbu sohaga qarshi kurashda juda muhimdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Bugungi kunga qadar mamlakatimizda davlat nazoratining bir necha turlari shakllangan: konstitutsiyaviy nazorat, parlament nazorati, Ombudsman nazorati, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz nazorati, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tadbirkorlik bo'yicha vakili nazorati, sud nazorati, prokuror nazorati, moliyaviy (budjet) nazorati, ijro hokimiyati tuzilmalaridagi ichki nazorat, ma'muriy nazorat, ekologik nazorat, tog'-kon nazorati, sanitariya nazorati va hokazo.

Sanab o'tilgan davlat nazorati turlari bilan bir qatorda davlat organlari va mansabdor shaxslari faoliyati ustidan fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ijtimoiy hayotda adolat va qonuniylik ta'minlanishi, jamiyat manfaatlari muhofazalanishi yuzasidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati ham shakllangan. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat nazoratini to'ldiruvchi jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish davlat organlarining faoliyatida qonuniylikni ta'minlashning ishonchli mexanizmi sifatida maydonga chiqadi.

Korrupsiya davlat boshqaruvida tizimli xavf xarakteriga ega bo'lib hisoblanib, u aholi o'rtasida davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchni yo'qotilishiga va obro'sizlanishiga sabab bo'ladi. Mutaxassislar tomonidan korrupsiyaning oldini olish choralarining umumijtimoiy hamda maxsus choralari ishlab chiqilgan bo'lib, umumijtimoiy choralarga fuqarolik jamiyati institutlarini korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha keng jalb qilish

hamda qonuniylik va oshkoralikni ta'minlash maqsadida davlat organlari faoliyatining ustidan jamoat nazoratini o'rnatish zarurligi ta'kidlangan[1,116].

Korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilishiga sharoit yaratuvchi omillardan biri sifatida bu illat ustidan ijtimoiy nazorat yetarli emasligi ko'rsatilgan.

«Jamoatchilik nazorati»ni tadqiq etishda tadqiqotchilar tomonidan ushbu tushunchaning mazmunini ochib berishda turlicha yondashilgan. Yuridik adabiyotlarda ham ushbu atamaga huquqshunos olimlarning bergan ta'riflari ham rang barang. Professor B.I.Ismoilov jamoatchilik nazorati tushunchasini fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning birlashmalarining davlat hokimiyati organlari va boshqaruvi ustidan nazoratidir, deb ta'riflaydi.

R.Hakimov jamoatchilik nazorati kuchli fuqarolik jamiyatiga bog'lab, jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlari, keng jamoatchilik tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ularning mansabdor shaxslar faoliyatini qonunga muvofiqlik nuqtai nazaridan muntazam nazorat qilishni anglatishini ta'kidlaydi.

Ijro hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish masalalarida tadqiqot olib borgan X.Muxamedxodjayevaning fikricha, «jamoatchilik nazorati jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, ijodiy uyushmalar, olimlar jamiyati, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolar hamda ularning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa uyushmalar tomonidan nazorat qilinayotgan davlat organi faoliyatida qonuniylik va inson huquqlariga rioya etilishini ta'minlash, kuchaytirish maqsadida amalga oshiriladigan nazoratdir»[1,24].

Professor O.Oqyulov esa jamoatchilik nazoratini iqtisodiyot sohasi bilan cheklagan holda ko'rsatadi, ya'ni «fuqarolik jamiyatida ilgari davlat boshqaruvida bo'lgan ishlarni bir qismi jamoa boshqaruviga o'tadi, shuningdek kuchli jamoatchilik nazorati tizimi amal qiladi. Iqtisodiyot sohasida, masalan, hakamlik sudlari va xalqaro arbitrajlar tomonidan nizolarni hal etish, iste'molchilar huquqlari va huquqiy manfaatlarini himoya qiluvchi jamoat birlashmalari faoliyat yuritishi bunga yaqqol misol bo'la oladi»[3,4], deb ta'riflaydi.

Bayon qilingan ta'riflarning tahlili jamoatchilik nazoratining obyektini tushunishda yondashuvlar turlicha ekanligini ko'rsatadi. Mazkur jihatlar xususida alohida to'xtalgan huquqshunos olim M.Mamasiddiqov fikricha, «jamoatchilik nazorati, birinchidan, faqatgina jamiyat uchun emas, balki davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatini samarali tashkil qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Zero, jamoatchilik nazorati qonunlarning samarali ishlashini ta'minlashga, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilishga hamda uni himoya qilishga davlat etadi, davlat tuzilmalarining takomillashuvini ta'minlaydi. Mazkur nazorat orqali mansabdor shaxslarning javobgarligi va mas'ulligi oshadi»[3].

MDH doirasida ham jamoatchilik nazorati sohasida qator ilmiy izlanish olib borilgan bo'lib, jumladan V.Fedorov uni keng va tor ma'nolarda tushunish lozimligini ta'kidlar ekan, keng ma'nodagi «jamoatchilik nazorati»ga davlatning jamiyat oldidagi o'z majburiyatlarini ta'minlash uchun davlatga fuqarolik jamiyati tomonidan ta'sir o'tkaziladigan usul, vosita, tamoyil va shakllar yig'indisi sifatida ta'riflasa, tor ma'nodagi jamoat nazoratiga jamiyat va davlat o'rtasidagi normativ belgilangan munosabatlarning amalga oshirilishini ta'minlovchi fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati sifatida izohlaydi[4].

Rossiya Federatsiyasi Jamoatchilik palatasining huquqiy maqomini tadqiq etar ekan, huquqshunos olim S.Taxoyeva palataning jamoatchilik nazorati funksiyasini izohlash davomida, jamoatchilik nazoratiga hukumat, ijroiya hokimiyati organlari va ularning boshqaruvi organlari faoliyati, shuningdek ommaviy axborot vositalari tomonidan so'z erkinligiga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat sifatida ta'rif beradi[5].

Guvohi bo'lganimizdek, yuqorida keltirilgan ikkala ta'rifda ham jamoatchilik nazorati tushunchasiga yondashuv turlichadir. Jumladan, V.Fedorov jamoatchilik nazorati tushunchasiga davlatga fuqarolik jamiyati tomonidan ta'sir o'tkaziladigan usul, vosita, tamoyil va shakllar yig'indisi sifatida bergan ta'rifida fuqarolik jamiyati va davlat tushunchalari o'rtasidagi muvozanat mavhum bo'lib qolayotgan bo'lsa, S.Taxoyeva tomonidan berilayotgan ta'rifda faqatgina qaysi subyektlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o'tkazilishi sanab o'tilib, tushunchaning o'ziga esa izoh berilmasdan qolmoqda. Ayni paytda S.Taxoyeva tomonidan keltirilgan ta'rifdagi ommaviy axborot vositalarining so'z erkinligiga rioya etilishi ustidan nazorati borasidagi fikri bahslidir.

## NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasining «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonuni hamda ushbu sohani tartibga soluvchi milliy qonunchilikda jamoatchilik nazorati tushunchasining yuridik tabiatiga huquqiy ta'rif berilmaganligi bois, kelgusida mazkur sohada tadqiqot olib boruvchi olim va izlanuvchilar jamoatchilik nazoratining yagona yuridik ta'rifini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz[6].

Shu tariqa jamoatchilik nazoratiga normativ-huquqiy ta'rifning mavjud emasligi sababli, xorijiy ilmiy adabiyotlardan «korruptsiyaga qarshi kurash sohasidagi jamoatchilik nazorati» mazmunini to'liq ochib beradigan tushunchasining ilmiy ta'rifini izlashga qaror qildik.

Ayrim tadqiqotchilardan qayd etishicha, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi jamoatchilik nazorati faoliyati ekspert baholaridan (jamoatchilik ilmiy ekspertizasi) foydalangan holda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mansabdor shaxslari faoliyatini monitoring qilishdan iboratdir[7,31-35].

Mazkur sohadagi boshqa tadqiqotlarda, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi jamoatchilik nazoratining maqsadi turli xil vositalardan foydalangan holda davlat organlari faoliyatining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdir, shu jumladan jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik tekshiruvi va boshqa vositalar[8].

## XULOSA

Xulosa qilganimizday korruptsiyaga qarshi kurash sohasidagi jamoatchilik nazoratiga davlat hokimiyati organlari tomonidan budjet mablag'lari va tabiiy resurslarni taqsimlash ustidan nazoratni amalga oshirish faoliyati sifatida yondashib, korruptsiyaga qarshi jamoatchilik nazoratini budjet munosabatlari va atrof-muhitni boshqarish sohasidagi nazoratga qisqartirgan qarashlari ham mavjud.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev. «Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir». O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. // 07.12.2019 yil. <https://uza.uz/>.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // 25.01.2020 y. <https://uza.uz/>.
3. Ismailov B. Davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning amaliy jihatlari // "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish masalalari: nazariya va amaliyot" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T., 2007.
4. Akhrorkulov, A. (2020). Non-Profit Organizations: Legislation Reform And Law Enforcement Practice. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2(10), 129-134.
5. Gulyamov, S., & Ahrorqulov, A. (2022). NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY ASOSLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 1029-1041.
6. Ahrorqulov, A. (2022). NOTIJORAT TASHKILOTLARI TO'G'RSIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 893-902.
7. Akhrorqulov, A. (2020). Issues of formation and registration of non-profit organizations. *Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19)*, 1(02), 23-26.
8. Mamajonova, D. (2022). KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR–XALQ MANFAATINING ASOSIY MEZONI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 688-693.
9. Dadaboeva, D. A. (2021). Civil-legal regulation of educational services. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 448-453.
10. Baratov, M., & Borotov, A. (2021). METHODS AND RESOURCES OF REALIZING THE RIGHT OF PRIVATE PROPERTY OR THE RIGHT TO USE THE LAND AS AN ELEMENT OF PRIVATE PROPERTY. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.4 Legal sciences).
11. Borotov, A. X. (2021). XUSUSIY MULK HUQUQINI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI: DE YURE/DE FACTO. *JURNAL PRAVOVIX ISSLEDOVANIY*, 6
12. KO 'CHMAS MULK SOTILGANDA YER UCHASTKASIGA BO 'LGAN HUQUQNING YURIDIK TAQDIRINI BELGILASH A Rahimjonov "Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ... 2 2022
13. INCREASING CIVIL LIABILITY FOR VIOLATION OF RIGHTS TO REAL ESTATE A Rakhimjonov "The american journal of social science and education innovations" 3 (04 ... 1 2021
14. Topildiyev, B. R. (2022). MOL–MULKNI ISHONCHLI BOSHQARISH TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 998-1008.
15. Topildiyev, B. R. (2017). Osnovniye usloviya dogovora doveritelnogo upravleniya imushestvom. *Yurist*, (9), 15-19.